- 9.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO ‘LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 10.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG ‘LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-

PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

11. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

12. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373."

7. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-

9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

8. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102.

Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>

9. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102.

Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

10. Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

11. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved

from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]

13 Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Academia Repository*, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>

14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13–17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

## ILK O'SPIRINLIK VA O'SPIRINLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

*Qurbanova Sevinch Hasan qizi  
Oltiboyeva Muxlisa Qahramon qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti  
Tabiiy fanlar fakultetini Kimyo yo'naliishi  
1-bosqich*

**Annotatsiya :** Ushbu maqoada ilk o'spirinlik davrida va o'spirinlik davrida shaxsda kechadigan psixologik, biologic, sotsiologik omillar va jarayonlar haqida, insonning shaxs sifatida shakllanishida psixofiziologik taraqqiyot sur'ati, akseliratsiya munosabati va boshqa malumotlarga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** psixologik, fiziologik, akseliratsiya, biogenetik nazarya, ilk o'spirinlik, o'spirinlik,

**Аннотация:** В данной статье мы получим информацию о психологических, биологических, социологических факторах и процессах, происходящих в человеке в период ранней юности и подросткового возраста, темпах психофизиологического развития в формировании человека как личности, взаимосвязь ускорения и другая информация.

**Ключевые слова:** психологическое, физиологическое, акселерация, биогенетическая теория, ранняя юность, подростковый возраст,

**Abstract:** In this article, we will get information about the psychological, biological, sociological factors and processes that take place in the person during the period of early adolescence and adolescence, the rate of psychophysiological development in the formation of a person as a person, the relationship of acceleration and other information.

**Key words:** psychological, physiological, acceleration, biogenetic theory, early adolescence, adolescence,

O'smirlikdan keyingi navbatdagi boskichni o'spirinlik davri deb bir bosqich xisoblashimiz xam mumkin, lekin xozirgi kubchilik psixologlar klassifikatsiyasi buyicha ikki boskichga ajratishimiz xam mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi boskichni o'smirlik, keyingisi ilk o'spirinlik yoki yigitlik davri deb aytildi—da 14 yoshdan 21 yoshgacha bo`lgan davrlarni qamrab olar edi. Xozir kupchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni ma'qul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8–9 sinfi-dan boshlab, kasb-xunar kolleji va litseylarining 1–2-sinflariga, ya'ni 8–10 sinf yoshiga to`g`ri keladi. Bu davrda o`quvchi jismonan bakuvvat, ukishni tugatgach mutsakil mexnat qila oladigan, oliy muktabda o`zini sinab ko`radigan imqoniyatga ega bo`ladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mexnat bilan ta‘lim faoliyatining bir xil axamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy xayotda faol katnashish, ta‘lim xarakterining o‘zgarishi, yigit va kizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e‘tikodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis–tuyguning vujudga kelishiga, bilimni o‘zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi. Ilk o‘spirinlik davri «kamolot bo‘sag‘asi» deb ta ‘riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o‘z ichiga oladi. Psixologiya fani o‘spirinlik muammosini kompleks o‘rganishni da’vat etadi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur’ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o‘spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o‘rtacha ikki-uch yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni 2-darajali jinsiy belgilarning paydo bo‘lishiga qarab, 3 ta bosqichga ajratadilar:

I bosqich —Prepubertat

II bosqich —pubertat

III bosqich —postpubertat

Akseleratsiya munosabati bilan o‘spirinlik yoshining chegarasi endi 15—16 dan 23 yoshgacha bo‘lmoqda. Bunda ilk o‘spirinlik 15—18 yosh, o‘spirinlik 18—23 yoshdagi yigit va qizlarni o‘z ichiga oladi. Demak, o‘spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rnii, ularning mavqeい, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa omillar ijtimoiy sharoitlarga bogiiqdir. O‘spirinlik — bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma’naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir.

Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o‘spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg‘u beradi: o‘quvchilarning hayotda o‘z o‘rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o‘z-o‘zini anglashga va axloqiy ongga ta’siri nazarda tutiladi.

Ilk o‘spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo‘lar ekanlar, o‘zlarining hayot yo’llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollarini aniqlab olishga, o‘zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. SHu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo‘lib qoladi, yigit va qizlar o‘z kelajaklari haqida jiddiyroq o‘ylay boshlaydilar. Ilk o‘spirlik yoshining boshlanishida odatda jinsiy yetilish tugallanadi,

ikkilamchi jinsiy belgilar rivojlanadi, bu hoi yigit va qizlarning tashqi ko‘rinishida ham sezilarli o‘zgarish hosil qiladi. Jinsiy yetilish davrining tugallanishi hali jismoniy yetuklikni ham, buning ustiga psixik va ma’naviy yetuklikni ham

anglatmaydi. Faqat 18 yoshga borib, nikohdan o‘tishga ruxsat beriladigan davrda, shu yosh uchun minimal darajada zarur boigan jismoniy, ma’naviy, fuqarolik yetuklik darjasini boshlanadi. 18 yoshli yigit va qizlar jamiyat tomonidan katta yoshli kishilar deb e’tirof etiladi. Hayot faoliyati kengaygan sari, o‘spirinlarda ijtimoiy roller kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o‘zgarib boradi. Masalan: 16 yoshda pasport oladi; 18 yoshidan faol saylash huquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega boladi. O‘spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo‘ladi. Ba’zi o‘spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay boshlaydilar. Kasb tanlash haqida o‘ylay boshlaydilar. Lekin, shunga qaramay o‘spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi. Rus psixolog L.S.Vigotskiy 1920-yillardayoq ilk o‘spirinlar haqida nazariyalar ko’pligini ta’kidlagan edi. Ilk o‘spirinlar haqida 3ta yirik yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi yo‘nalish biogenetik yo‘nalish deb ataladi, uning asosida yetilishning biologik jarayonlari yotadi. Ikkinci yo‘nalish sotsiogenetik yo‘nalish deb ataladi, unda assosiya e’tibor ijtimoiylashuvga qaratiladi. Uchinchi yo‘nalish psixogenetik deb atalib, uning asosida psixik jarayonlar va funksiyalarning rivojlanishi yotadi.

Ilk o‘spirinlik biogenetik va sotsiogenetik yo‘nalishlarining umumiyligi xususiyati shundaki, taraqqiyotning manbaalari va harakatga keltiruvchi kuchlarini ular psixik omillardan tashqarida izlaydilar. Birinchi holda organizmda ro‘y beradigan biologik jarayonlarga urg‘u beriladi, ikkinchisida shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy jarayonlarga urg‘u beriladi. Psixogenetik yo‘nalish har ikkala yo‘nalishning ahamiyatini kamaytirmagan holda, psixik jarayonlaming rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu yobnalishni uchga bo‘lib okrganish mumkin. Ular: Xulq-atvorni hissiyot, mayl va boshqa psixikaning ratsional bo‘limgan tarkibiy qismlari bilan tushuntiruvchi nazariya psixodinamik nazariya deb ataladi. Bilish qobiliyatları va intellektning rivojlanishiga urg‘u beriladigan konsepsiya kognitiv yoki kognitiv-genetik konsepsiya deb ataladi. Shaxsning rivojlanishiga urg‘u beriladigan konsepsiylar personologik konsepsiylar deb ataladi.

Insonninn hayot yo‘li turli tumandir. Ilk o‘spirinlikda inson hayot yo‘lini o‘zi tanlaydigandek tuyuladi, lekin uning kasb tanlashiga tarbiya, muhit va boshqalar ham ta’sir qiladi. Kasb-hunar kolleji yoki litseyni bitirgandan so‘ng shaxsiy bo‘limgan tashqi omillarning ta’siri yanada kuchli bo‘ladi. **V.N.SHubkning** ta’kidlashicha, biz tanlaydigan yo‘llardan boshqa bizlarni tanlaydigan yo‘llar ham mavjud. Oliy o‘quv yurtini tugallagan Yoshlar ta’limni hayotni mazmunli va qiziqarli qilish vositasi sifatida hamma narsadan ustun qo‘yishadi. Ishlaydigan Yoshlar esa ta’limning mohiyatini jamiyatga ko‘proq foyda keltirishda degan fikrdalar.

O‘spirinlar turli kasblarni turlicha baholaydilar. 17 Yoshlilar kasblarni qonstrast “oq-qora”, mavhum deb baholasalar, 25 Yoshlilar o‘zlarining hayot yo‘llari bilan

baholaydilar. Muvaffaqiyatli kasbga yo‘naltirishning muhim shartlaridan biri o‘quvchilarning mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi va ularning faolligidir.

Kasbga yo‘naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash - hayot mazmuni haqidagi o‘ylari va shaxsiy “Men” tabiatini bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ming-minglab kasblar bor, lekin muayyan mehnat turiga individual moyillik bilan unga bolgan qobiliyat va uning ijtimoiy ahamiyatiga yuqori baho berish birga qo‘silib ketgan vaqtdagina chin yurakdan tanlangan kasbgina kishiga ma’naviy qoniqish va jamiyatga foyda keltiradi. Ilk o‘spirinlar uchun xarakterli xususiyat

— kasblarga keskin tanlab munosabatda bo‘lishdir. Ular ayrim kasblarni yuksak baholaydilar, o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida bu kasblarning ijtimoiy mavqeい ulug‘dir. Boshqa kasblarning ijtimoiy mavqeい juda past. Kasbiy niyatlarning barqarorligini o‘rganish yuzasidan N.I.Krilov o‘tkazgan tekshirish shuni ko‘rsatdiki, hatto o‘z niyatlarini amalga oshirib, oliy o‘quv yurtiga kirgan talabalar orasida ham ko‘plari o‘zlarining kim bo‘lishlarini oxirigacha hal qilmaganlar. Bunga sabab yoshlarni mazkur oliy o‘quv yurtiga olib kelgan kasb haqidagi tasavvur bilan bu kasbning haqiqiy, amaliy mazmuni okrtasidagi nomuvofiqlikdir. O‘zining kasb tanlash bo‘yicha taqdirini tasodifan hal etish murakkab kechinmalarga, tanlangan kasbi sohasida ikkilanishlarga, og‘ir ichki nizolarga olib kelishi mumkin. Bu esa yigit va qizlar uchun ham, jamiyat uchun ham katta zarar keltiradi. Shunday qilib, o‘spirinlik davri 16—23 yoshni o‘z ichiga oladi. Bunda 16—18 yosh ilk o‘spirinlik, 18—23 yosh esa o‘spirinlik deb ataladi. Bu davrda kasbiy o‘z-o‘zini belgilash yetakchi faoliyat hisoblanadi. E’tiqod va dunyoqarash bilan bir qatorda, axloqiy ideallar bu davrda paydo bo‘lgan yangi psixologik tuzilmalardir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG ‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO ‘G ‘RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан тахлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.

- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.
- 6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
- 7.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-
9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
- 8.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>
- 9.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
- 10.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
- 11.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved

from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]

13 Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Academia Repository*, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>

14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13–17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

## O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

Mordayev Behzod

Ro'ziboyev Akmal

Termiz davlat pedagogika instituti

"Tabiiy fanlar" fakulteti

kimyo yo'nalishi 1-kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lif jarayonida o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligrining o'rni masalasiga to'xtaladi. Pedagogik faoliyat subyekti bo'lgan o'qituvchi shaxsiga xos psixologik xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika , psixologiya kasbiy xislatlar , o'qituvchi qobilyatlari:( perspektiv qobilyatlar; akademik qobilyatlar ; avtoritar qobilyatlar:) , gnostik malakalar.

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется роли сотрудничества учителя и ученика в обеспечении эффективности критерииев и требований к личности и профессиональным знаниям учителя в образовательном процессе. Выделены психологические особенности учителя, который является субъектом педагогической деятельности.

**Ключевые слова** ; Педагогика, психология, профессиональные качества, педагогические навыки: (перспективные навыки; академические навыки; авторитарные навыки:), гностические навыки.

**Annotation.** This article focuses on the role of collaboration between teacher and student in ensuring the effectiveness of the criteria and requirements for the personality and professional knowledge of the teacher in the educational process. The psychological characteristics of the teacher, who is the subject of pedagogical activity, are highlighted.

**Keywords** ; Pedagogy, psychology, professional qualities, pedagogical skills: (prospective skills; academic skills; authoritarian skills:), gnostic skills.

### KIRISH (Introduction)

Muhim davlat vazifasini – "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy Faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogic tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlna boradi. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzunitush

untirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Hozirgi jamiyati mizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatlari borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanlididan dalolat beradi. Chunki bu ke chiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtayi nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshiri sh bilan shug'ullanishi zarurdir.

Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har d oim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z

qarashi bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan,

o'qituvchining o'zi axborotlarolish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt Imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangin a muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lган aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori,

shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimini oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bo'g'liq. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doi miy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan toldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tu shuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar

mustaqil bilim egallah zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatlari foydalananadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shaklla nadi.

Ko'p hollarda bunday motivlar "o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?" degan xohish-istiklalar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana bo radi. Shu bilan birga yaqqol ko'zga tashlanib turgan ayrim hollardan ko'z yuma

olmaymiz. Masalan, o‘qituvchilar ommasining ma’lum qismi lanishda bo‘lib, o‘z bilim saviyasini oshirish bilan faol ydi, malakasini oshirishga intilmaydi, ba’zilar muayyan bilimlar sohasida taraqqiyotdan butunlay ortda qolmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim va tarbiya taraqqiyotiga ji ddiy zarar keltiradilar. Bu muammoni hal etishda asosiy vazifa malaka oshirish tizimi zimmasiga tushadi. Respublikamizda xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish institutlarining tarmoqlari joriy etilgan, bular Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markaziy instituti, Toshkent shahar, viloyatlardagi xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish institutlaridir. Xalq ta’limidagi bu tizimning asosiy vazifasi doimiy ravishda o‘qituvchi kadrlarning malakasini oshirish, o‘qituvchi kadrlarni o‘zlarining kasbiga xos bilim saviyasini, ko‘nikma, malakalarini, ma’naviyat va ma’rifatini, shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik va huquqiy ma’lumotini oshirishga da’vat etuvchi ijtimoiy psixologik sohalarni rivojlantirib borishdan iboratdir. O‘qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlardandir. Shu bilan birga o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib, o‘z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta’minalashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur. Bu borada hazrati Bahouddin Naqshband “Chaqmoq tosh qo‘limizga berilgan, faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo‘lsin” deb ta’kidlaganlar. Bu fikr bilan u ijtimoiy tarbiyaning o‘rniga ishora qiladi, to‘g‘ri tarbiyaning mohiyatini, uning samarasini aniq o‘xshatishlar bilan asoslab beradi. Hozirgi zamon ilm-fan taraqqiyotini buyuk allomalar yaratgan bir necha qimmatli asarlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu nodir asarlar bir necha asrlar ilgari yaratilgan bo‘lsa-da, o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta’lim to‘g‘risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalаниди. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo‘llanildi.

### MUHOKAMA (Discussion)

Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o‘z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko‘rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin.

O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tibor qaratilishining naqadar muhim

ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi. "...O'qituvchi, — deydi Abu Nasr Forobiy, — aql-farosatga, chiroqli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur". U o'z fikrini davom ettirib: "O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini chiroqli ifodalab berishni bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi,adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi",— deb ta'kidlaydi.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: "Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Haq yoldida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Aylamak emas oson oning haqqin yuz ganj ila", — kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy mакtab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi — sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbayidan biridir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'masligi mumkin emas. Chunki u o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma'lumki, pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, mакtab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning otaonalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligini bilishining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xalq ta'limi bo'limlari va mакtab direktorlari o'qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchidan birinchi navbatda o'z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o'zlashtirishini talab qilsalar, mакtab direktorlari o'qituvchiga qo'yiladigan bunday talablarni uchinchi o'ringa qo'yadilar. Shu bilan birga xalq ta'limi bo'limlarining mudirlari o'qituvchilarning o'quvchilar va ota-onalar, mакtab jamoasi bilan qanday muloqotda bo'lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e'tibor bermaydilar. Mакtab direktorlari esa, bunday xislatlarni o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar ichida birinchi o'ringa

qo‘yadilar. Bo‘lajak pedagog shaxsiga bir qator jiddiy talablar qo‘yiladi. Ularni asosiy, ya’ni uni egallamasdan turib, yuqori malakali o‘qituvchi yoki tarbiyachi bo‘lib yetishish mumkin bo‘lman va ikkinchi darajali, ya’ni bevosita pedagogik faoliyati uchun emas, balki uning shaxs sifatida shakllanishi va shaxsga ta’lim-tarbiya berishida muhim bo‘lgan talablarga ajratish mumkin. Bosh, asosiy talablar singari, ikkinchi darajali talablar ham pedagogning faoliyati psixologiyasiga ya’ni, uning muloqoti, qobiliyati, bilimi, malaka va ko‘nikmasi, mahorati, bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish uchun zarur bo‘lgan sifatlarga bog‘liqdir. Asosiyalar orasida ham, qo‘shimcha psixologik xossalari ichida ham o‘zgarmas, ya’ni har bir davrda, vaqt va xalqlarda doimo o‘qituvchi va tarbiyachilar uchun, malakali pedagoglar uchun zarur bo‘lgan hamda o‘zgaruvchan, ya’ni muayyan davr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti talablaridan kelib chiqadigan, jamiyat qaror topgan sharoitda yashaydigan va pedagog ishlaydigan muhit talablaridir.

Pedagogga qo‘yiladigan asosiy, bosh va o‘zgarmas talablar bolalarga bo‘lgan mehr, pedagogik faoliyat, o‘zi ishlaydigan soha bo‘yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo‘lish, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat. Yuqorida keltirilgan xislatlarning birortasisiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib borish mumkin emas. Pedagog uchun qo‘shimcha, lekin nisbatan turg‘un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o‘rinda turmasa-da, ammo o‘qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bu hamma xossalari tug‘ma qobiliyat emas. Ular pedagogning muntazam mehnati, shuningdek, o‘z ustida tinmay ishlashi natijasida egallanadi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalari jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o‘qituvchi qaytarilmas va o‘ziga xos shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan. Jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga qo‘yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

- shaxsni ma’naviy va ma’rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg‘onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o‘z Vatani, tabiatga va oilasiga bo‘lgan muhabbati;
- keng bilim saviyasiga ega boiishi, turli bilimlardan xabardor boiishi;
- yosh, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bolishi;
- o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi;

- ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o‘z ishiga ijodiy yondashishi;
- bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta’limning ifodalari vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;
- o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo‘lishga intilishi kerak. O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi. Jamiyatning muayyan tarixiy davrida, belgilangan vaqt va belgilangan ish joyiga xos bo‘lgan pedagogning asosiy va ikkinchi darajali o‘zgaruvchan xususiyatlari haqidagi masalani hal qilish birmuncha murakkabdir. Jamiyatda ro‘y berayotgan yangi shart-sharoitlar, ta’lim va tarbiya sohasida yangi maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Ular o‘z navbatida o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o‘z vaqtida va aniqroq aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

O‘quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o‘zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo‘lmog‘i va bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog‘i lozim. Ota-onalar o‘qituvchining ish staji va yoshi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o‘qitish mahoratini kutadilar. O‘quvchilar esa o‘qituvchilarni uch xil xislatlari bo‘yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o‘qituvchining odamgarchiligi,adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko‘rish xislatlari; ikkinchidan, o‘qituvchining sezgirligi, talabchanligi bilan bog‘liq tashqi xislatlari va xulq-atvoriga qarab; uchinchidan, o‘qituvchining o‘z fanini bilishi, uni tushuntira olishi kabi ta’lim jarayoni bilan bog‘liq xislatlariga qarab xarakterlab beradilar. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo‘yiladigan talablar bilan birga, o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan ijtimoiy talablar ham o‘sib bormoqda. O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

## XULOSA (Conclusion)

Shunday qilib, xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, pedagoglarning pedagogik mahoratida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. Hayot — kashfiyotlar olami. Tajriba, uslub, fikrlar rang-barang. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko‘chadi. Ularning tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar, talabalar muallimning faxri, kelajagidir. Shu bois ularning niyati o‘quvchilarni, talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma’rifat fidoyilari safida ko‘rishdir. Har bir pedagogning o‘z faoliyat tizimini ishlab chiqishi va unga qat’iy amal qilishi uning ta’lim sohasidagi muvaffaqiyatlarining muhim omillaridan biridir. Pedagog bir xil metodlarda dars o‘tish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Aksincha, u o‘qitish metodlarini takomillashtirish ustida tinimsiz ishlashi zarur. Xalqimizning kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqqboli ko‘p jihatdan pedagogga, uning saviyasiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

### ADABIYOTLAR (REFERENCES)

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG ‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO ‘G ‘RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан тахлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO ‘LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG ‘LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK

OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O ‘SMIRLARNING SOG ‘LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368. 7.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-

9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

8.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>

9.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

10.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

11.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI’S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> [Zamira Opa Ish, 24.04.2024 15:08]

13Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI’S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>

14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

## YOSHLIK ,YETUKLIK VA KEKSALIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Panjiyeva Muxlisa Xo'shboq qizi*

*Aliyeva Sarvara Nemat qizi*

*Termiz davlat pedagogika insitituti Tabiiy fanlar*

*fakultiteti Kimyo ta'lim yo'nalishining*

*1-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yosh davlari; yoshlik, yetuklik, va keksalik davrularida kechadigan psixologik xususiyatlari, bu davrarda shaxs rivojlanishida boradigan biologik, psixologik, psixik, sotsiologik o'zgarishlar va jarayonlar haqida malumotlarni bilib olamiz.

**Kalit so'zlar:** Yetuklik davri, yoshlik davri, gerontopsixologiya, involyusiya, gerogigiyena, geriatriya gerontologiya, geteroxronik.

**Аннотация:** В данной статье возрастные периоды; мы узнаем информацию о психологических особенностях молодости, зрелости и старости, биологических, психологических, психологоческих, социологических изменениях и процессах, происходящих в развитии человека в эти периоды.

**Ключевые слова:** Подростковый возраст, юношество, геронтопсихология, инволюция, герогигиена, гериатрия, геронтология, гетерохронность.

**Abstract:** In this article age periods; we will learn information about the psychological characteristics of youth, maturity and old age, the biological, psychological, psychological, sociological changes and processes that take place in the development of a person during these periods.

**Key words:** Adolescence, youth, gerontopsychology, involution, gerohygiene, geriatrics, gerontology, heterochronic.

Biz, faqat o'zimiz uchungina yashay olmaymiz- deb yozadi, mashhur ro'mannavis yozuvchi German Melvill,- bizning hayotimiz boshqalarning hayoti bilan bir-biriga minglab rishtalar bilan chambarchas bog'langandir".

Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar o'zlikni anglash imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intellektual aqliy amaliy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bu esa o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarga insonning o'ziga yangicha munosabat va yondoshuvni talab qiladi. Yangicha yondoshuvlar Yosh davlari va pedagogik psixologiya fanining obekti va pridmeti ko'lамини kengayishiga olib keladi. Yosh davlari va pedagogik psixologiya fanlari faqat yosh davlari klasifikatsiyasi, yosh davlarni psixik rivojlanish taraqqiyotini o'rganib ilmiy-nazariy, uslubiy -amaliy ta'minlovchi fan emas balki komil inson

shakillanishini rivojlanishini taminlovchi keng sohalarni o‘z ichiga oladi. Yoshlik davri 23-28 yoshlardah iborat bo‘lib bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamol erishgan shaxs sifatida faolishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Psixofiziolog P.P Lazarev fikricha, eshitish, ko‘rish, perifyrik va kinistetik sezgilarining o‘zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. B.G Ananev o‘zining ilmiy tatqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o‘zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan ummumiy ruhiy holat, verbalva no verbal aqliy soda jaroyonlargacha, hatto shaxsning xususiyatigacha bo‘lgan holatlarni o‘z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy malumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko‘rsatib o‘tadi.

Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam o‘rganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixoanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga, patologik variantlariga e’tibor qaratadi. Norma kasallik belgilarining yo‘qligi sifatida qaraladi. Boshqa yo‘nalish, gumanistik psixologiya vakillari o‘zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolutlashtiradi.

Yoshlik davrida yigit va qizlar kamolotiga uchta muhum psixologik mexanizm, yani mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmi ulfatlar ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, manaviyat olami, barqarormaslik, ijtimoiy ong ijtimoiy qadriyatlar, muayyan ananalar va odatlar yangi azolarning harakterida ijobiy yoki salbiy o‘zgarishni vujudga keltirishi mumkun.

Ayrim hollarda ko‘p chilikning taziyiqiga uchragan shahsda qatiylik,adolatlilik singari xislatlar shaxsiy nuqtaiy nazar bo‘shashib qoladi natijada unda ikqilanish tuyg‘isi paydo bo‘ladi.

Yetuklik davrining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayyollar kiradilar.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imqoniylardan to‘laroq foydalanish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Y.Kulytkin tadqiqotining natijasiga qaraganda , 30-35 yoshlarda diqqat 102,8 xotira 99,5 tafakkyr 102,3 birlikda baravardir. Maskur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g‘alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta‘sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag‘rurlik hislari paydo bo‘ladi, o‘zini boshqalardan ustun qo‘ya boshlaydi yoki, aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa vahodisalarga nisbatdan loqaydlik tuyg‘usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko‘rinishga ega bo‘lgan ruhiy holat ham oila azolari, tenqurlari, mehnat jamoasi azolarining ta‘siri orqali asta-sekin myayyan yo‘nalishga tushib qoladi. Yetuklikning bosqichlari turli olimlar tomonidan turlichal talqin qilingan. Yetuklik davrini birinchilardan bo‘lib davrlashtirgan Sh.Byuler o‘z-o‘zini aniqlashni asos qilib, yetuklikning beshta bosqichini ajratgan:

Birinchi bosqich (16—20 yosh) shaxsiy o‘z-o‘zini belgilashdan oldin keladi.

Ikkinci bosqich (16—20 yoshdan 25—30 yoshgacha) — urinib ko‘rish va izlash bosqichidir (kasb, umr yoldosh va b.). Bu davrda hayotiy maqsadlar noreal bo‘lib, o‘zgarib turadi.

Uchinchchi bosqich (25—30 yoshdan 45—50 yoshgacha) — yetuklik davri: inson hayotda o‘z o‘rnini topadi, oila quradi. 40 yoshlarda shaxs o‘zining hayotda erishgan natijalariga qarab o‘zini baholay boshlaydi.

To‘rtinchi bosqich (45—50 yoshdan 65—70 yoshgacha) — qartayayotgan inson, kasbiy faoliyatning tugashi, maqsadlar qo‘yish va faol o‘z-okzini belgilashning yo‘qolishi.

Beshinchi bosqich (70 yoshdan keyin) — qari inson: o‘tmishni eslash va tinchlikni xohlash.

Mashhur gollandiyalik psixolog va psixoterapevt B.Divexud kattalar hayotidagi 7 yillik bosqichlarni ajratgan Uotering davrlashtirishini misol sifatida keltiradi:

21—28 yosh — hayotiy bazisni egallash;

28—35 yosh — topilgan hayot asoslarini tasdiqlash;

35—42 yosh — ikkinchi jinsiy yetilish, kasbiy maqsadlarga yo‘nalganlik;

42-49 yosh - maniakal-depressiv davr;

49—56 yosh — shaxsiy qartayish bilan kurash;

56—63 yosh — donolik;

63—70 yosh — o‘z hayotida yana muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglash, «ikkinci yoshlik» imkoniyati.

Lekin inson hayot yo‘lini bunday davrlashtirish tavsilovchi xarakterga ega bo‘lib, jiddiy empirik asoslarga ega emas. Yetuklik davrida shaxsning rivojlanishi psixologiyadagi kam o‘rganilgan muammolardan biridir. Masalan, psixoanalitik nazariyalar shaxs anomaliyalariga, patologik variantlariga e’tibor qaratadi. Norma kasallik belgilarining yo‘qligi sifatida qaraladi. Boshqa yo‘nalish, gumanistik psixologiya vakillari o‘zligini namoyon qilgan mashhur shaxslarni absolutlashtiradi. Qarilikning birinchi davri gerontogenez yoki keksayish davri deb ataladi. Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, bu davr 60 dan keyin boshlanadi.

Gerontopsixologiya psixologiya fanining tarkibiy qismi ekanini ilmiy jihatdan S.Xoll asoslagan bo‘lsa-da, lekin bu yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida Mark Tulliy Sitseron ("Katta Katon yoki keksayish haqida" asarida), I.I.Mechnikov ("Optimizm etyudlari" kitobida), O‘rta Osiyo allomalari donolik, donishmandlik haqidagi durdonalarida falsafiy fikr va muyahazalarni bildirganlar. Amerikalik psixolog S.Xoll (1846—1924) "Keksayish" monografiyasida amaliy va metodologik ahamiyatga molik qator g‘oyalarni ilgari surgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki inson psixikasining shakllanishida barcha omillar muhim hisoblanadi .Lekin yoshlik,yetuklik va keksalik davrlarida biologic omillarning darajasi bir muncha pasayadi .Sababi bu yosh davrlarida shaxs psixik ,biologic jihatdan shakllanib bo'lgan hisoblanadi .yana shuni alohida ta'kidlash joizki insonlarning shaxs sifatida shakllanishida bu yosh davrlarga bo'lish qolib emasligini ya'niy yuqorida o'r ganilgan yosh davrlariga bo'lish hamma shaxslarda bir xil kichadi degani emasligini ko'rib chiqdik .Demak inson hayoti mukammalligini bilib oldik .Hech kim hech qachomn insonning shaxs sifatida shakllanishini belgilab berolmasligiga amin bo'ldik .

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10 SPECIAL), 32-35.
- 6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 363-368.
- 7.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
- 8.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>

- 9.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
- 10.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
- 11.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> [Zamira Opa Ish, 24.04.2024 15:08]
- 13Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>
- 14.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

11.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI’S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved

from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> Zamira Opa Ish, [24.04.2024 15:08]

13 Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Academia Repository*, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>

14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13–17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

## **GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVI VA IJTIMOIY XULQ-ATVORNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Saparova Sarvinoz*

*O'rалова Yulduz*

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti*

*Kimyo ta'lif yo'nalishi 1- bosqich talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiylashuvi, uning bosqichlari, turlari, shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni o'rghanishda sotsiomadaniy yondashuvlar haqida so'z boradi.

**Kalit so`zlar .** Shaxs, jamiyat, ijtimoiylashuv, institutlar, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, habitus, qadriyatlar.

Shaxs bu - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjud sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o'ta murakkab ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruxiy-axloqiy va estetik aql idrok tafakkur obyekti sifatida hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxs ko'pgina fanlarning, birinchi navbatda, falsafa, psixologiya, sotsiologiyaning o'rghanish obekti hisoblanadi. Faylasuflar shaxsni uning dunyodagi mavqeい nuqtai nazaridan faoliyat, bilish sub'ekti sifatida qaraydilar. Ularning diqqat markazida inson qanday qilib jamiyatning malakali a'zosiga aylanishi masalasi doimo bo'lib kelgan. Bu masalalar XIX asrning oxirlaridan sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar tomonidan intensiv o'rjanila boshlandi. XX asrning o'rtalarida sotsializatsiya o'zgarib mustaqil fanlararo tadqiqot sohasiga aylanadi.

Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud;

An'anaviy - oila va yaqin muhit orqali o'quvchilarni ijtimoiy faollikkaga jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish. Institutsional - ijtimoiy institutlar va ta'lif muassasalari tomonidan o'quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish. Shaxslararo-o'quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish; Refleksiv o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baxolash, o'z-o'zini loyixalashni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy etish. Hayot maqsadlariga erishish va individual vazifalarni amalga oshirishda inson ikki xil ijtimoiy xatti — harakatlardan foydalanishi mumkin: 1)tabiiy va 2)ana'naviy, ularning orasidagi farqlar asosiy xususiyatga ega."Tabiiy" xatti-harakatlar, alohida

ahamiyatga va egosentrik har doim shaxsiy maqsadlarga erishish va bu maqsadlarga mos ravishda yo'naltirilgan. Shuning uchun, shaxs ijtimoiy xulq-atvor maqsadlari va vositalarining muvofiqligi haqida savol bermaydi: maqsadga har qanday vositalar bilan erishish mumkin va erishish kerak. Insonning "tabiiy" xatti-harakati ijtimoiy jihatdan tartibga solinmaydi, shuning uchun odatda axloqsizdek ko'rinishga egadir. Bunday ijtimoiy xatti-harakatlar tabiiydir, Chunki u organik ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgan. Jamiyatda "tabiiy" egotsentrik xatti-harakatlar "taqiqlangan", shuning uchun u har doim ijtimoiy konvensiyalarga va barcha shaxslarning o'zaro imtiyozlariga asoslangan.

Sharq yulduz sanalgan Abu Rayhon Muhammad ibn Axmad Beruniy (973-1048) qarashlarida iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati, ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi moddiy extiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'liqlikda aks ettirgan.

Mutafakkir va davlat arbobi Yusuf xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilik" asarida ham aynan ijtimoiylashuv masalasiga oid 4ta obraz vositasida mohiyatni ochib bergen; Birinchisi-adolat bo'lib u Podshox Kuntug'di timsolida, ikkinchisi davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi- aql bo'lib , vazirning o'g'li O'gdilmish, to'rtinchisi- qanoat bo'lib Uning qarindoshi O'zgirmish qiyofasida tasvirlangan.

Ijtimoiylashuv boshqa odamlar bilan og'zaki yoki og'zaki bo'limgan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, sanoat jamiyatlarida millionlab odamlar yirik shaharlar ular ishga borish uchun taxminan bir vaqtida turishadi, garchi tashqaridan hech kim ularni majburlamasa ham - bu habitusning namoyonidir.

Habitus - bu ichki ijtimoiy tartib.

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaro topishi ham tezlashadi. Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jaravon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqorida qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'limvositasida amalga oshadi. Ikkinci tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar,ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.Ijtimoiylashuv jaravoni ichki qaramaqarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Ijtimoiylashuv ikki tomonlama, ko'p yo'nalishli jarayondir. Biologik omillar va

madaniyat o'rtasida, shuningdek, sotsializatsiyani amalga oshiruvchilar va ijtimoiylashganlar o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud.

Ijtimoiylashuv katta kuch hisoblanadi. Muvofiqlik istagi istisno emas, balki qoidadir. Bu ikkita sababga bog'liq: insonning cheklangan biologik imkoniyatlari va madaniyat tufayli yuzagakelgan cheklolar. Cheklangan biologik qobiliyatlar haqida gapirganda nimani nazarda tutayotganimizni tushunish qiyin emas: odam qanotsiz ucha olmaydi va uni bunga o'rgatib bo'lmaydi. Har qanday madaniyat turli xil mumkin bo'lganlardan faqat ma'lum xulq-atvor namunalarini tanlaganligi sababli, u insonning biologik imkoniyatlaridan qisman foydalangan holda otsializatsiyani ham cheklaydi.

Muloqot jarayonida odamlar bir birlari bilan ma'lumot almashib, o'zaro ta'sir kursatibgina qolmay, balki bir birlarini to'g'riroq va aniqrok anglashga tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir birlarini to'g'ri tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A.Badalev boshchiligidagi laboratoriya bir birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixolog qonuniyatlarini kuzatgan. Bunday mexanizmlarga identifikasiya, refleksiya va steriotipizasiyalar kiradi. Identifikasiya shunday psixolog xodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun uzlarini bir birlarining o'rniga kuyib kurishga harakat qiladilar. Ya'ni o'zidagi, bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikasiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning urtogi yoki akasi tushunishi mumkin.

Odamlarning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va xajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishda qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin.

Ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok qilish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jixatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham obyekti, ham subyekti bo'lib faoliyat kursatadilar. Idrokning obyekti sifatida shaxs qaralganda unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi"ning barcha sifatlari va kirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: usha odamning tashki kiyefasi, uning qiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutki, qiliklari, yurishi va xokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan obyektdir. Shuning uchun ham telefonda

suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Odamlarning bir birlarini to'g'ri idrok qilishlari ularning perceptiv, ya'ni hissiy bilish (idrok, sezish) sohasiga aloqador bo'lsa, bir birlarini tushunishi ularning tafakkur sohalariga bevosita taalluqli bo'lib, murakkab jarayondir. Boshqa odamni to'g'ri tushungan shaxs uning hissiy holatiga kira olgan hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda, unda empatiya birovlarning his kechinmalarini tushuna olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi.

Jamiyat mikesida oladigan bo'lsak, odamlarning turli sharoitlarda uzlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini kurish mumkin. Bunga sabab jamiyatga kabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalar. Chunki o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday xattiharakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida kabo'l qiladi. Masalan, usmir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rinn bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning normasi. Shu normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy na'zorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni yo'qoridagi sharoitda agar usmir bola avtobusda kariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik usha zaxoti uni tartibga chakiradi. Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini na'zorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar.

Xulosa sifatida shuni aytish o`rinliki, biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy ustakovkalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuallik va iroda erkiga ega emasmiz, degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Individ tomonidan ijtimoiy rollar va odob-axloq normalarini o'zlashtirilishiga alohida urg'u berishi, ijtimoiylashuv xodisasining ijtimoiy tajribani boshqa individga yetkazishning ajralmas xususiyati sifatida ko'riliishi bilan bog'liq xolat ekanlidigkeitadir. Bundan ko'rinish turibdiki shaxsning ijtimoiylashuvi nafaqat xozirgi zamon global masalasigina bo'lib qolmay bir necha asrlar avval yashab o'tgan sharq mutafakkirlarining ham asarlarida alohida yoritilgan mavzulardan bo'lgan.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numanova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. *Academia Repository*, 2(11), 46-53.

3. Ашуроева, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.
- 6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
- 7.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>
- 8.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>
- 9.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>
- 10.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>
- 11.Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> [24.04.2024 15:08]
- 13Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Academia Repository, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>

14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

## **ÒSMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

*Choriyeva Xurshida*

*Ismoilov Zuxriddin Isroil o‘g‘li*

*Termiz davlat pedagogika*

*insstituti Tabiiy fanlar fakulteti*

*Kimyo talim yo‘nalishi 1-bosqich ismoilovzuxriddin645@gmail.com*

**Annotasiya:** Bu ilmiy maqoladan maqsad o’smirlik davridagi jismoniy va psixik rivojlanishining umumiyligi xususiyatlari, jinsiy yetilish jarayoni, uning psixik rivojlanishiga ta’siri, o’smirlik davri inqirozi va uning psixik sabablari, o’smirlik davrida intellektual va shaxs rivojlanish xususiyatlari bo‘yicha maqolani yangicha talqinda ochib berish. O ‘smirlik davrida o ‘z-o ‘ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, ular ong va dunyo qarashining shakillanishini tushuntirish orqali o ‘smir yoshlarni, o ‘z-o ‘zini anglashga, tahlil qilishga va tarbiyalashga o ‘rgatish.

**Kalit sozlar:** psixologik, jinsiy balog‘at, ruhiy, yetuklik, o’smir yoshlar, o ‘zgarishlar, akseleratsiya, individual, inqiroz.

Hozirgi davrda o’smirlarni voyaga yetkazishning o’ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti- harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o’smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to’la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo’llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o’rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi. Turg’unlik yillardagi so‘z bilan ishning nomuvofiqligi”, axloq tarbiyasidagi qo’pol xatolar o’smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o’smirlar taqdiri masalasi ham g’oyat jiddiy tus oldi. O’smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o’smir o’g’il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur.O’smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta’sirlarga beriluvchan o’smir o’g’il-qizlarga alohida e’tibor berish zarur. O’smirlar muammosiga e’tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari: 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san’at va adabiyot, ijtimoiy- iqtisodiy shart-sharoitlarning o’zgarayotgani; 2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli

o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani; 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqyealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi; 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallahshgani; 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi; 6) oshkorlik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqr kirib borayotgani; 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani. O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda o'quvchi bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi o'quvchilarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinnlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyangan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, tahsil oluvchi unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l- yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, ko'yishiga qaramay, o'zining fikrini o'tqazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmati haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ay rim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti- harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, nizolar kelib chiqadi. Ayrim pedagoglar o'smirlilik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqsa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlilik

davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan

O'smirlik 10-11 Yoshlardan 14-15 Yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik Yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarning mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'likdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishslashini kuchaytiradi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «o'tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta Yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinci bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. Inson umrining o'smirlik bosqichida asosan ikkita xarakterli jihat farqlanadi. Uning bittasi- kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi-o'smirning oilada va maktabda e'tibordan chetda qolishi, shu ikki jihat katta yoshdagi odamlarning e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq tarzda kechadigan bo'lsa, oqibatda tarbiyasi qiyin deb ataluvchi yoshlari

paydo bo'lishiga olib keladi. 5-8- sinf o'quvchilari o'smir yoshdagi shaxs deb yuritiladi. Bu davr 2 ga ajratiladi.

- 11-12 yosh davri;
  - 14-15 yosh davri;
- > „O'tish davri”, „Inqiroz davri”, „Pubertat davri”, „Tarbiyasi qiyin davri”, „Murakkab davri” deb nomlanadi.
- > Akseleratsiya ham katta ahamiyat kasb etadi.
- > Psixologik, psixoofiziologik va ijtimoiy omillarga bog'liq.
- O'smir yosh davridagi o'zgarishlar quyidagi nomlar bilan farqlanadi:
1. Tarbiyasi qiyin, xotirasi past, diqqatining ko'lami tor, beqaror, agressiv;
  2. Deviant xulqli bolalar borliq, nizoli oilalarda shakillanadi;
  3. Asotsiallik ko 'chaga yo 'nalgan bolalar;
  4. Delikvent xulqli bola-oиласида mahkum qilgan shaxslar bilan munosabatlar asosida yuzaga keladi;
  5. Nuqsonli bolalar- jismoniy nuqsonlarga ega.

O'smirlilik davri-- Insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchi, o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi omildir. Shu bilan birgalikda o'smirlilik faoliyati natijasi natijasi haqida bir necha olimlar fikr bildirishgan, xususan: Biogenetik yo'naliш vakillari S. Call va Z. Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblaydi. Amerikalik antropologlar M. Mid va R. Benedikt o'smirlilik inqiroziy ijtimoiy munosabatlarning natijasi deb qarashadi. Xarakter asentuatsiyasi- K. Leonhard tomonidan kiritilgan tushuncha bo'lib, xarakter ba'zi sifatlarning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter aksentuatsiyasini bilish o'smirlarga individual yondashish, kasbga yo'naltirish kabilarda zarurdir. O'z-o'zini baholash-shaxsning boshqalar bilan taqqoslash refleksiya natijasida o'z-o'zini baholash murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, shaxs strukturasida katta o'rinn tutadi. Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o'smirlilik davrini baholashda insonga azaldan berigan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki hudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossiz hisoblab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. Amerikalik K. Kulon o'smirlilik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlilik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degsnilgari suradi. Uning fikricha o'smirlilik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy kategoriya mavjud bo'lib, ular:

1. Emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutilish);
2. Mustaqillikka erishish;
3. Hayotiy yo'li va kasb- hunar tanlashda jiddiy munosabatda bo'lish zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirshdan iboratdir.

Bola yuqorida muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'iy nazar, u bolaligicha qolaveradi. O'smir o'zini nazorat qilmas ekan bu borada trio yo'ldan adashishi muqarrar bo'lib qoladi.O'smir yoshi dunyo qarash , e'tiqod, prinsip, o'zlikni anglash,baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanadigan davr hisoblanadi.O'smir ilayotgan sari unda „Ideal Men”, „Axloqiy Men”, va „Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakillana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip va shaxsiy nuqtai- nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. O'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik,kamtarlik,mag'rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma'naviy, axloqiy tushunchalarni to'g'ri angelaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslарini egallash natijasida barqaror ilmiy qarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Yuqorida fikrlarni umumlashtirgan holda bir so'z bilan aytganda o'smirlik katta hayotga qo'yilgan birinchi qadam hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. — 600 b.
2. M.G.Davletshin, Sh. Do`stmuhamedova, M. Mavlonov, S.To`ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O`quv metodik qo'llanma. T.:2004y 129b.
- 3.Ashurova, S. (2023). SOG 'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO 'G 'RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 4.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.
5. Ашурова, III. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил

қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.21.

6.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.

7.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

8.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

7.Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

8.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/arti>

9.Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. Open Access Repository, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

10.Nilufar Boynazarova. (2023). ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE OF PRIMARY CLASS STUDENTS. World Bulletin of Social Sciences, 27, 10-12. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3220>

11. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). THE CONTENT AND ESSENCE OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 18-22. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3222> [Zamira Opa Ish, 24.04.2024 15:08]
13. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). CONDITIONS OF USING AL-HAKIM AL-TIRMIZI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *Academia Repository*, 4(10), 1–9. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/99>
14. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 13-17. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3221>

**KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI PSIXOLOGIK VA  
PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK  
XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Ashurova Shaxnoza Fahriddin qizi**

TerDPI Psixologiya kafedrasи o'qituvchi

[Shaxnoza1297@gmail.com](mailto:Shaxnoza1297@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda maktabgacha ta'lism sohasida psixologning vazifasi hamda psixologik xizmatning ustuvor vazifalari, maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari va bu borada nazariyachi olimlarning fikrlari, bolalar psixologiyasining muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari va metodikalar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lism tashkiloti, tarbiya, sog'lom turmush tarzi, psixologik xususiyat, psixologik nazariyalar, kichik guruh,bilish jarayonlari, sezgi, nutq, psixologik xizmat.

**Аннотация:** В данной статье изложены задачи психолога и приоритетные задачи психологической службы в сфере дошкольного образования на сегодняшний день, психологические особенности детей дошкольного возраста и мнения ученыхтеоретиков в этой области, проблемы детской психологии и пути их преодоления и методики.

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, воспитание, здоровый образ жизни, психологическая характеристика, психологические теории, подгруппа, процессы познания, речь, интуиция, психологическое обслуживание.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lism tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PF-51-98-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lism muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lism muassasalarining yangi shakllarini joriy etish xususida turli xil qaror va farmonlar joriy etdi. Maktabgacha ta'lism tizimida bilim ,amaliy ko'nikma va malakalar,ma'lum psixologik- pedagogik ko'nikmalar nuqtayi nazaridan,eng avvalo bolalarni tarbiyalash uchun to'laqonli o'zlashtirish zarur,bolaning keyingi rivojlanishi, noto'g'ri yo'ldan ozdirilishining oldini olishga bog'liq. Ma'lumki,maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari vazifalari sirasiga shaxsga yo'naltirilgan ta'lism-tarbiyani amalga oshirish,bolalarda ijtimoiy kommunikativ, axloqiy,estetik,intelektual,jismoniy sifat

va salohiyatlarni uyg‘otish va rivojlanishtirish,sifat va salohiyatlarni uyg‘otish va rivojlantirish,bolalarda mustaqillik,mas’uliyatlilik,tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish,bolalarning yosh,individual,psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan ta’lim- tarbiya jarayonini tashkil etish kiritilgan1 . Zamонавиј nazariyalar XX asrda bolalar bog‘chalari va boshqa mактабгача ta’lim muassasalarining ko‘payishi bir qator o‘zgarishlar bilan bog‘liq:

- Psixologiya,tibbiyot, psixiatriya va ta’lim sohalarida qo‘llanishi natijasida erta bolalikka yangi ilmiy qiziqish;
- bolalarga yo‘l –yo‘riq ko‘rsatish va ota-onalar ta’limning muhimligini tan olish; • Ishlaydigan onalarning bolalarini parvarish qilish uchun allaqachon tashkil etilgan bolalar bog‘chalarining ta’lim dasturlarini takomillashtirishbo‘yicha sa’yharakatlar. Katta nazariyachilardan biri psixolog John Piaje va uning izdoshlarining eng katta hissalari rivojlanish psixologiyasi bo‘lib,ular bolalar intellektual rivojlanishning muntazam bosqichlaridan o‘tishlariga ishonch hosil qilganlar.Dastlabki ikki davr – sensomotor intellekt(tug‘ilgandan ikki yoshgacha),shuningdek vakillik (ikki yoshdan,yetti yoki sakkizgacha) erta bolalik sohasiga tegishli. Bolalar bog‘chalari va bolalar bog‘chalarining asosiy muammolaridan biri tilni rivojlantirishdir. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, haqiqiy nutq bola o‘zi ishlatadigan so‘zlar bilan mazmunli aloqalar hosil qila boshlaganida boshlanadi (ona so‘zini uning ma’nosini tushunmasdan taqlid qiladigan chaqaloq haqiqiy nutqqa qo‘shilmaydi). Ikki yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bola uchun og‘zaki nutq asosiy vazifa bo‘lib, ifodalash va tushunishni o‘z ichiga oladi. Taxminan to‘rt yoshida u o‘ztiliningtizimligrammatikasiasoslarinio‘zlashtiradi. Olti yoshgakelib, o‘rtacha bola o‘zso‘zboyliginitaxminan 2500 so‘zga ko‘p aytiradi – buuning muhitining sifatiga, ayniqsa kattalarning bola bilan munosabatda bo‘lishga tayyorligiga bog‘liq. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar uyi kabi shaxssiz muassasadagi juda yosh bola, odatda, oddiy oila sharoitida bir xil yoshdagи bolalardan orqada qoladi. Erta bolalik davridagi ta’limning ko‘plab vazifalaridan biri barcha bolalar uchun, ayniqsa, kompensatsiya ishlariga muhtoj bo‘lganlar uchun boshlang‘ich til ko‘nikmalarini o‘rgatishdir. Ularning tushunish va nutqini yaxshilash uchun tinglash va til o‘yinlari mavjud. Ta’lim o‘yinlarini muvaffaqiyatli o‘qitish moslamasi deb topadigan o‘qituvchilar, ular bolaning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirishini ta’kidlaydilar .Bolalar kuchli o‘rganish va o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatiga ega bo‘lib tug‘iladi.

Bolalar dunyo haqidagi tushunchalarini har bir yangi tajriba bilan solishtirishadi, ular ba’zan "sodda nazariyalar" deb ataladigan nazariyalarni yaratadilar. Bu bosqichda bolaning moslashuvi sinov va xato orqali o‘rganishga bog‘liq, lekin u ham narsalarni sezgi orqali boshqaradi. U mantiqiy va matematik munosabatlar

(guruqlar, o‘lchamlar miqdorlar va sifatlar) va fazoviy va vaqtinchalik munosabatlar kabi simvolizatsiya va munosabatlarning elementar turlarini birlashtira boshlaydi. J.Piaje nazariyasi yosh bolada kognitiv ta’lim jarayonlari va kontseptsiyani shakllantirishning ahamiyatini tan olish uchun asos yaratdi. J. Piaje shuningdek, zarur ko‘nikmalarni o‘rganish uchun qulay qulay muhit muhimligini ta’kidlaydi. Ularning tushunish va nutqini yaxshilash uchun tinglash va til o‘yinlari mavjud.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bolani har tomonlama rivojlantirishda nafaqat mакtabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida bolani qo‘llab – quvvatlash, balki bolani oilada ota-onas, kattalar, tengdoshlari tomonidan tushunish va qo‘llab –quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tarbiyachi hamda muassasa psixolog o‘zining ijtimoiy pedagogik faoliyatida ota-onalar bilan ishslash jarayonida ularning pedagogik psixologik savodxonligini oshirishga ,oiladagi sog‘lom muhit va bola tarbiyasiga ma’suliyat bilan yondashish, bu sohada mакtabgacha ta’lim tashkiloti bilan hamkorlikda ishslash bolani mакtab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorlashning sharti ekanligini ota-onalarga yetkazish muhim sanaladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Ashurova, S. (2023). SOG ‘LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO ‘G ‘RISIDAGI TASAVVURLARINING ShAKLLANISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
- 2.Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.
3. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан тахлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.
- 4.qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO ‘LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O ‘ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.
- 5.qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG ‘LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK

OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

6.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O ‘SMIRLARNING SOG ‘LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

## **ABOUT THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN INTERNATIONAL ECONOMIC INTEGRATION**

***Normatov Dilshod Rabbimjon o'g'li***

*Chief specialist of the youth affairs department of Jizzakh region*

*E-mail: [dilshodnormatov1990@gmail.com](mailto:dilshodnormatov1990@gmail.com)*

**Abstract:** The digital economy plays a crucial role in today's interconnected world, significantly influencing international economic integration. This article explores the multifaceted aspects of the digital economy and its impact on globalization and economic cooperation among nations. It discusses how digital technologies have transformed traditional industries and created new opportunities for businesses to expand globally. The article also examines the challenges and opportunities presented by the digital economy, including issues related to data privacy, cybersecurity, and digital divide. Moreover, it analyzes the role of digital platforms in facilitating international trade and investment, as well as the implications for policy-makers in promoting a more inclusive and sustainable digital economy. Overall, the article highlights the importance of embracing digital transformation to enhance international economic integration and foster global prosperity.

**Keywords:** Digital economy, International economic integration, Globalization, Digital transformation, Digital platforms, Data privacy, Cybersecurity, Digital divide, Sustainable development, Policy-making.

**Introduction:** The digital economy, characterized by the use of digital technologies to conduct economic activities, has emerged as a transformative force in the global economy. Enabled by advances in information and communication technologies (ICTs), the digital economy encompasses a wide range of activities, including e-commerce, digital payments, online services, and digital content creation. The rapid proliferation of digital technologies has fundamentally altered the way businesses operate, trade flows, and economies interact. This article explores the role and significance of the digital economy in promoting international economic integration, defined as the process of increasing economic interdependence and interconnectedness among countries.

### **The Role of the Digital Economy in International Economic Integration:**

1. **Facilitating Cross-Border Trade:** The digital economy has significantly lowered barriers to trade by enabling businesses to reach global markets with greater ease and efficiency. E-commerce platforms, for example, have empowered small and medium-sized enterprises (SMEs) to access international markets and engage in cross-border trade.

2. **Enhancing Productivity and Competitiveness:** Digital technologies have the potential to enhance productivity and competitiveness by enabling businesses to streamline operations, improve efficiency, and innovate more rapidly. This, in turn, can drive economic growth and job creation, contributing to greater economic integration.
3. **Enabling Digital Services Trade:** The rise of digital services, such as cloud computing, software development, and digital marketing, has created new opportunities for trade in services. Countries with strong digital capabilities can capitalize on these opportunities to increase their participation in global value chains.
4. **Promoting Innovation and Knowledge Sharing:** The digital economy fosters innovation by facilitating the rapid dissemination of ideas, knowledge, and technologies across borders. This can lead to the creation of new industries, products, and services, driving economic diversification and integration.
5. **Improving Financial Inclusion:** Digital financial services, such as mobile banking and digital payments, have the potential to improve financial inclusion by providing access to financial services for underserved populations. This can promote economic development and reduce inequality, contributing to greater economic integration.

**Challenges and Opportunities:** While the digital economy offers numerous benefits for international economic integration, it also poses challenges that need to be addressed. These include:

- **Digital Divide:** Disparities in access to digital technologies between countries and regions can widen the digital divide and hinder economic integration.
- **Data Governance:** Issues related to data privacy, security, and cross-border data flows pose challenges for international trade and economic cooperation.
- **Regulatory Frameworks:** The rapid pace of technological change in the digital economy often outpaces the development of regulatory frameworks, creating regulatory uncertainty and potential barriers to trade.
- **Digital Infrastructure:** Inadequate digital infrastructure in some countries can limit their ability to fully participate in the digital economy and benefit from economic integration.

**Conclusion:** The digital economy is reshaping the global economic landscape and playing an increasingly important role in fostering international economic integration. By enabling cross-border trade, enhancing productivity and competitiveness, and promoting innovation and knowledge sharing, the digital economy has the potential to drive economic growth and development. However,

realizing the full benefits of the digital economy requires addressing challenges related to the digital divide, data governance, regulatory frameworks, and digital infrastructure. Embracing the digital economy and leveraging its potential are crucial for countries seeking to enhance their economic integration and competitiveness in the global economy.

**REFERENCES:**

1. World Bank, "World Development Report 2016: Digital Dividends."
2. World Bank. (2019). World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. World Bank Publications.
3. United Nations Conference on Trade and Development, "Information Economy Report 2019: Digitalization, Trade and Development."
4. UNCTAD. (2020). Digital Economy Report 2020: Cross-border data flows and development. United Nations Conference on Trade and Development.
5. Zhang W. Study on the effect of digital economy on high-quality economic development in China //PloS one. – 2021. – T. 16. – №. 9. – C. e0257365.
6. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company.
7. Manyika, J., Lund, S., Singer, M., White, O., & Berry, C. (2016). Digital Globalization: The New Era of Global Flows. McKinsey Global Institute.
8. World Economic Forum. (2016). The Future of Jobs: Employment, Skills and Workforce Strategy for the Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

## ПРОИЗВОДНЫХ ПИРАЗОЛА НА ПРОНИЦАЕМОСТЬ КАПИЛЛЯРОВ И КИНИНОВУЮ СИСТЕМУ КРОВИ

**Махсумов Ш.М., Зайцева О.А., Д.Д.Ачилов,  
Ф.К.Абдураимова, Н.Х.Абдурасурова, Г.И.Вахобжонова**  
Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент, Узбекистан

**Цель работы.** Интенсивность развития процесса воспаления связана, в том числе, и с повышением проницаемости сосудов. В этой серии экспериментов изучали влияние исследуемых препаратов- производных пиразола - К-151, К-152 на сосудистую проницаемость капилляров и на кининовую систему [1,2,3].

**Материал и методы исследования.** Эксперименты проводились на кроликах. Препараты вводились перорально в дозах 25 мг/кг, 50 мг/кг и 100 мг/кг. Проницаемость сосудов изучали по методике К.Н. Монаковой, кининовую систему крови - по методу Т.С. Пасхиной [4,5,6].

ta'minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to'g'ri yonaltirish shaxsning hayotida to'ri yo'lni to'ishga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o'zlarining qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo'lishi, kasblar bilan bog'liq fan to'garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb – hunar to'risidagi ma'ruzalarni tashkillash o'z natijasini beradi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologiyi, kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar va o'qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

## MUHOKAMA

O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularda barqaror kasbiy ustanovkalarni shakllantirish ijtimoiy psixologiyaning tipik muammosi emas. Ma'lumki, ushbu muammo qisman umumiyligi psixologiyaning, asosan esa yosh davrlari, pedagogik va rivojlanish psixologiyasining muammosi hisoblanadi.

Ammo, psixologiyadagi shaxs va jamiyat o'zaro bog'liqligi printsipidan kelib chiqadigan bo'lsak, kasbiy ustanovkalarning jamiyat ta'sirida va uni o'rabi turgan ijtimoiy borliqning qadriyatlari ta'sirida shakllanishini anglash qiyin emas. SHu bois ham biz yoshlardagi kasbiy motivatsiyani ham aynan shu tamoyillar asosida shaxslararo va guruhlararo munosabatlardan tizimida ham nazariy, ham empirik asosda o'rghanishga qaror qildik va bu muammoni ijtimoiy psixologiyaning ham muammosi sifatida talqin etamiz. Mamlakatimizda ta'lim samaradorligini oshirish, umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda [3].

Kasbga yo‘naltirish borasida asosan maktab psixologgi faoliyat olib borib, o‘quvchilarning avvalo, qaysi kasbga nisbatan qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash maqsadida diagnostikani o‘tkazish va uning statistik tahlilini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning ma’lum bir kasbni tanlashida ularning individual xususiyatlari ham asosiy o‘rinni egallaydi. Xususan, o‘quvchilarning xarakter va temperament tiplariga xos xususiyatlari kelejakda ular tanlagan kasbkorliklarida o‘zini namoyon qilishlarida muhum rolni taqozo etadi.

## **NATIJA**

Kasbga yo‘naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash – hayot mazmuni haqidagi o‘ylari va shaxsiy “Men” tabiatini bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilarida biror o‘quv faniga ishtiyooq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Ana shunday ikkilanishlar yuzaga kelgan vaziyatda kasbiy utanovkalar ijobiy samara beradi. Bunday ikkilanish oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

1. O‘sirinlarda kasblarni o‘rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish;
2. Amaliyotchi psixologlar va pedagoglar kasblar bo‘yicha tashviqot ishlari olib borishi, o‘sirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;
3. Doimiy ravishda psixolog va ota – onalar bilan birga kasbga yo‘naltirish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatish;
4. Kasb tanlash usullarini amaliyotga tadbiq qilingan psixodiagnostik usullarini ishlab chiqish;
5. Kasbga yo‘naltirish yuzasidan o‘sirinlar orasida proferentatsiya, targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish kabilari.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘sirinlarni kasb tanlayotgan, kelajagini yaratayotgan davrda ularga alohida e’tibor berisi, imkon qadar ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbga yo‘naltirishni talab etadi. Zero, o‘sirinlar

tanlagan kasblaridan kelajakda qoniqish hissini hosil qilishlari kasbiy samaradorlikni ta'minlashning 'uhimsharti hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Крутецкий В.А. Психология обучения И воспитания школьников. М. 1976.
3. Абдуллажанова Д.С., Д.Э.Ходжакулова Социално-психологические особенности развития инновационной активности личности в управлении. Global dunyoda psixologiya fani: nazariya va amaliyot, chaqiruvlar va istiqbollar Professor E.G‘.G‘oziyev xotirasiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. 16 fevral 2022. – B. 82-86.
3. Ismailova, Z. K., & Baybaeva, M. X. (2020). Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish. Life Sciences and Agriculture, (2-2), 185-188.

## ҚҮШМА ЖАРОХАТЛАРДА БОШ МИЯ СТРУКТУРАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАРИНИНГ ТАНАТОГЕНЕТИК АХАМИЯТИ

**Болтаев Н.**

*Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Навоий филиали  
Патологик анатомия бўлими*

**Доларблиги:** тумтоқ воситалардан шикастланиш холатларида, шу жумладан қўшма ёки кўп сонли жароҳатларда шикастланишларнинг юзага келиш муддатини аниқлаш масаласи замоннавий суд тиббиётида хозиргача долзарб муаммо бўлиб қолмоқда. Бу холат аъзо ва тўқималарнинг умумий ва маҳаллий жавоб реакциясининг динамикаси ва ривожланиш даражаларига тўғридан-тўғри ёки билвосита таъсир қилувчи омилларнинг жуда хилма-хиллиги билан изохланади.

**Ишнинг мақсади:** бош мия тузилмаларидағи ўзгаришларнинг морфологик жихатини ўрганиш асосида экстроцеребрал қўшма жароҳатларнинг турли даврларида вафот этган шахсларда жароҳатлар етказилиш муддатини аниқлаш.

**Тадқиқот натижаси:** бош мия тузилмалари жароҳатисиз кечган 313 та қўшма ва кўп сонли жароҳатлар оқибатида вафот этган шахслар мурдалари текширилди. Бундай жароҳатланишларни “экстроцеребрал қўшма жароҳат” деб белгиладик.

Шулардан 57 та холатда тадқиқот бизнинг иштирокимизда ўтказилди. Қўшма ва кўп сонли жароҳатлардан ўлим турларини танлашда қўшма ва кўп сонли жароҳатланишларнинг анатомо-клиник таснифига асосландик: кўкрак қафаси ва қорин аъзолари қўшма шикастлари (56,8%); кейин эса-умуртқа-орқа мия шикастларининг кўкрак ва қорин аъзолари билан биргаликдаги шикастланишлари (20,4%); хамда кўкрак-қорин аъзолари ва оёқ-қўллар билан биргаликдаги шикастланиш (13,7%) лардан иборат бўлди. Бошқа турдаги экстроцеребрал қўшма жароҳатлар, травмаларнинг 4,1% ва 4,7% ни ташкил этди.

Қўшма ва кўп сонли жароҳатлардан вафот этганларнинг 75,0% ни эркаклар ва қолган 25,0% ни аёллар ташкил этди; Уларнинг 43,7% ни 18-60 ёшдаги шахслардан иборат бўлди.

**Хулоса:** томирларнинг қон билан таъминланиш даражаси сақланиб қолган холларда, нерв тўқималари ва қон томирларининг травматик касаллик танатогенезида иштирок этиш даражаси тахминан бир хил бўлади. Камқонликда эса, травматик касаллик давомийлиги чўзилиши билан ПЦБ кўрсатгичларининг ПВБ кўрсаткичидан устунлиги кузатилади.

Шу муносабат билан, камқонли томирларнинг ўртача хажм зичлиги (ЎҲЗ), экстроцеребрал қўшма ва кўп сонли жароҳатлар натижасида келиб чиққан травматик касалликларнинг давомийлиги ортган сайин, ишончли даражада ошади.

## **Состояние местной гемодинамики языка у больных глоссодинией**

**Хасанов Фозил Козимжонович.**

*Кафедра детской терапевтической стоматологии Ташкентского  
государственного стоматологического института  
Ризаев Элёр Олимжонович д.м.н профессор.*

Из-за сложного клинического проявления точная причина глоссодинии в настоящее время неизвестна. Предполагается, что этиология многофакторная, включающая взаимодействие нейрофизиологических механизмов и психологических факторов [1].

Было обнаружено значительное количество местных, системных и психологических факторов, связанных с глоссодинией; однако некоторые из этих факторов следует рассматривать как условия, важные для дифференциальной диагностики жжения в полости рта, а не как этиологический фактор. В том числе, к таковым можно отнести такой фактор как нарушение гемодинамики языка, что и явилось причиной настоящего исследования.

### **Материалы и методы исследования.**

В соответствии с целью и задачами исследования проведено обследование 45 пациентов с глоссодинией в возрасте 45-64 лет, обратившихся на кафедру терапевтической стоматологии Самаркандинского государственного медицинского университета в 2022-2024 гг. Обследованные больные были разделены на 2 группы согласно возрастной классификации ВОЗ: среднего возраста (45-59 лет – 27 человек) и пожилого возраста (60-74 лет – 18 человек). Мужчин было 6 (13,3%), женщин – 39 (86,7%). Из лиц с глоссодинией, после того как были проведены все исследования для получения первичных данных, были сформированы две группы – основная (23 человека, из них – 3 мужчины и 20 женщин) и контрольная (22 человека; 3 мужчины, 19 женщин). Диагностику глоссодинии осуществляли согласно диагностическим критериям МКБ-11 (2019) и Международной классификации орографической боли (2022).

Для изучения характера кровоснабжения языка определялись ультразвуковые гемодинамические критерии глубокой артерии языка (ГАЯ).

Во время обследования положение больного лежа, лицом вверх. Под плечи подкладывалась невысокая плотная подушка. После высыхания ватным тампоном на самую высунутую часть языка был нанесен специальный гель. Линейный датчик устанавливался на задней части языка, в зоне проекции ГАЯ, перпендикулярно ее продольной оси.

Изучение сосудов проводилось с использованием режима цветового картирования, для быстрого нахождения его местоположения. После визуализации сосудов запускали допплерографию кровотока и определялись его качественные и количественные параметры.

Качественные параметры оценивались в ходе спектрального анализа: форма доплеровской кривой, наличие «спектрального окна». Количественные параметры допплеровского сдвига частоты оценивали с помощью показателей максимальной sistолической скорости кровотока ( $V_{\text{max}}$ ) и усредненной по времени пиковой скорости кровотока (ТАМ $x$ ). Индекс резистентности (РИ), пульсаторный индекс (ПИ), sistоло-диастолическое соотношение (С/Д) и объемную скорость кровотока (ОСК) определяли по стандартным методикам [3,4,5].

**Результаты и обсуждение.** Анализ качественных показателей допплеровского спектра ГАЯ у больных глоссодинией выявили наличие sistолических, катакротических и дикротических зубцов, а также диастолической фазы, однако у всех обследованных больных, в отличие от здоровых лиц, были обнаружены низкие значения скорости кровотока и пикового сглаживания.

В некоторых исследованиях наблюдалось наличие дополнительных пиков в фазах sistолы и диастолы и отсутствие «спектрального окна». Допплерографические показатели кровотока сосудистой системы больных глоссодинией сравнивались с такими показателями локальной гемодинамики артерий языка у здоровых лиц контрольной группы без поражения языка (табл. 1).

Исследование допплеровского спектра ГАЯ у обследованных больных выявлено снижение интенсивности внутриязычного кровообращения по сравнению с контрольной группой. Об этом свидетельствовало значительное ухудшение большинства среднестатистических значений линейных и объемных показателей кровотока.

Таблица 1. Допплерографические показатели ГАЯ контрольной группы лиц и пациентов с глоссодинией

Доплеровские показатели ГАЯ	Основная группа	Контрольная группа
Диаметр, мм	$1,013 \pm 0,01$	$1,12 \pm 0,01$
P	<0,001	
V-max, м/с	$0,145 \pm 0,0002$	$0,25 \pm 0,05$
P	<0,001	
Индекс резистентности (Пурсело)	$0,78 \pm 0,0054$	$0,73 \pm 0,008$
P	<0,001	
Индекс пульсаторный (Гослинга)	$3,83 \pm 0,321$	$2,8 \pm 0,06$
P	<0,001	
TAMx, м/с	$0,225 \pm 0,024$	$0,257 \pm 0,02$
P	>0,05	
C/D	$2,76 \pm 0,11$	$2,85 \pm 0,05$
P	>0,05	
ОСК, мл/мин	$14,9 \pm 1,2$	$18,3 \pm 1,1$
P	<0,05	

Примечание:

p – достоверность разницы показателей между основной и контрольной группами

Таким образом, у больных глоссолинией V – max в ГАЯ составила  $0,145 \pm 0,0002$  м/с (по сравнению с  $0,25 \pm 0,05$  м/с в контрольной группе, p<0,001). Значительные изменения средней максимальной скорости кровотока, которая является наиболее чувствительным параметром и изменяется даже при легком артериальном повреждении [2,4] ( $0,225 \pm 0,024$  против  $0,257 \pm 0,02$  м/сек, при p>0,05), также указывают на гемодинамические нарушения в период развития заболевания. Значение одного из линейных показателей сосудистого кровообращения – индекса резистентности (ИР) – имело постоянную тенденцию к увеличению у больных глоссолинией по сравнению со здоровыми лицами:  $0,78 \pm 0,0054$  против  $0,73 \pm 0,008$

( $p<0,001$ ). Полученный результат индекса ИР свидетельствует о значительном повышении тонуса сосудистой стенки.

Значительное ухудшение кровоснабжения сосудистой системы языка у больных глоссодинией особенно отразилось на результатах объемных показателей кровотока. При этом среднестатистическое значение ОСК ( $14,9\pm1,2$  мл/мин), отражающее истинное кровоснабжение органа, было ниже, чем у контрольной группы ( $18,3\pm1,1$  мл/мин) с доверительным интервалом 95%. Это указывает на наличие застойных явлений в сосудистой системе языка при висцеро-рефлекторно-бульбарном синдроме. Указанная закономерность была выявлена при расчете значения пульсаторного индекса.

По мнению некоторых авторов, это могло быть причиной местных гемодинамических нарушений, а также косвенным маркером нарушений реактивности сосудистой стенки. Гиперпульсация установлена у больных с глоссодинией ( $3,83 \pm 0,321$  против  $2,8 \pm 0,06$ ,  $p < 0,001$ ). По нашему мнению, в сочетании с повышением сосудистого тонуса это обусловлено артериальной гипертензией, встречающейся почти у половины обследованных больных.

Во время спектрально-допплеровского анализа состояния сосудистой стенки определяют такжеsistоло-диастолическое соотношение. Показатель С/Д является косвенной характеристикой состояния сосудистой стенки, в частности ее эластических свойств. Определение этого показателя у больных глоссодинией выявило его снижение по сравнению с таким результатом у практически здоровых людей без поражения языка ( $2,76 \pm 0,11$  против  $2,85 \pm 0,05$  при  $p>0,05$ ). Согласно некоторым авторам [4], артериальная гипертензия является одной из наиболее частых патологий, приводящих к изменениям этого показателя.

**Заключение.** Таким образом, цветная и пульсовая допплерография являются современным неинвазивным методом выявления нарушений гемомикроциркуляторного русла языка при глоссодинии. Основной формой нарушения внутриорганного кровообращения при глоссодинии является венозная гиперемия. Достоверные значения основных параметров кровотока ( $V_{max}$ , ОСК) свидетельствуют о затруднении оттока крови из микроциркуляторного русла и развитии венозной гиперемии.

Исследование состояния гемодинамики ГАЯ у больных глоссодинией по показателям триплексного сканирования установлена зависимость некоторых параметров допплеровского сдвига частоты от общего

артериального давления испытуемых. Об этом свидетельствовало достоверное увеличение величины пульсации, индекса резистивности и аналогичное снижение систоло-диастолического соотношения (ДИ 95-99 %).

Использованная литература:

1. Дычко Е. Н., Ковач И. В., Штомпель А. В., Биденко Т. Н. Характер микроциркуляции в полости рта при глоссалгии // Український стоматологічний альманах. – 2012. – № 2. – С. 31–34.
2. Кречина Е. К., Маслова В. В., Фролова С. А. Оценка состояния гемомикроциркуляции в тканях пародонта по данным лазерной и ультразвуковой допплерографии // Стоматология. – 2007. – № 7. – С. 45–48.
3. Литвинова Е. Н. Сравнительный анализ лазерной и ультразвуковой допплерографии в оценке тканевого кровотока при заболеваниях пародонта : автореф. дис. на соискание уч. степени канд. мед. наук. – М., 2010. – 25 с.
4. Надточий А. Г. Ультразвуковое исследование челюстно - лицевой области // Медицинский журнал «SonoAce – Ultrasound». – 2010. – № 21. – С. 79–88.
5. Ушакова Л. Ю. Ультразвуковое исследование сосудов // Медицинские новости. – 2009. – № 13. – С. 12–16.

## MAQOM SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI

*S.B. Hamitova Buxoro davlat universiteti  
Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasи  
o'qituvchisi, 12-2-vokal 20-guruh  
4-bosqich talabasi Turdiyeva Aziza*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek maqom san'atining tarixi, rivojlanish bosqichlari, sharq musulmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom, "Farg`ona-Toshkent maqom yo'llari", uyushgan pard, Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh.

Maqomlar tarixini o`zaro farqli ikki yirik davrga ajratish mumkin. Birinchi davr mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan juda qadimiy kelib chiqish ildizlari, dastlabki kuy ohang qatlamlarini o'rghanish tashkil etadi. Tabiiyki, bu davrda hozirda bizga ma'lum tom ma`nodagi maqomlar bo`lmagan albatta. Zotan bizgacha yetib kelgan maqomot tizimlarining shakllanish jarayonlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning ma'lum bosqichi bilan shartlanganki, bu (ikkinchi davr) xususida o`z o`rnida mufassalroq to`xtamga o`tamiz.

Ta`kidlash joizki, maqom kuy ohanglarini qadimiy qatlamlarini o'rghanishga ko`mak bo`luvchi maxsus musiqiy risolalar bo`lmasa-da, ammo bu borada eng asosiy va muhim manbaalar bizning davrga qadar yetib kelgan. U ham bo`lsa ajdodlarimizdan ulkan ma`naviy meros qolgan "Shashmaqom", "Xorazm maqomlari" va "Farg`ona-Toshkent maqom yo'llari"dir. Maqom kuylarining xususiy "til" tuzilish (sintaksis) qurulmalarini malakali idrok va tahlil eta olish asosida ular tarkibida uyg`unlashgan turli davr musiqiy qatlamlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Ayni paytda bizga ma'lum rivoyatlar mazmunidan ham zarur xulosalar chiqarish mumkin. Shu asnoda O`zbekistonda mavjud maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg`ona-Toshkent maqom yo'llari) musiqasiga nazar tashlar ekanmiz, uning har biri o`zgacha tarovatli kuy-navolari negizida eng mukammal darajada uyushgan pard (tovush) tizilmalari borligi e'tiborimizni o`ziga jalg qiladi. 7 ta asosiy pardalar o`zaro uyg`un, ohangdosh tovushlar nisbatiga qurilgan bu nag`amot uyushmalari kim tomonidan va qachon ijod etilgan? Bu borada yuritilgan mantiqiy fikr-mulohazalar asosida ularning shakllanish vaqtini keyingi davrlarga, ya`ni musiqa san`ati taraqqiy ergan asrlarga taaluqli deb o`ylash mumkin. Biroq jahon musiqa tarixi bunday xulosani inkor etadi.

Chunki, maqom pardalariga o`xshash yeri asosiy pog`onali (pardali) tovush tizilmalari Sharqu-G`arb musiqa madaniyatiga juda qadim zamonlardan ma'lumdir. Xususan, qadimgi yunonlar bu kabi pardas uyushmalarining bir necha turlarini

bilibgina qolmay, balki ularning inson tarbiyasida alohida muhim o`rni borligini ham ta`kidlaganlar. Donishmand Pifagor esa mukammal pardalarning inson ruhiga favqulodda ta`siri sabablarini ilmiy bilish maqsadida ularni matematik usullar bilan o`rganib chiqqan (bu usullar keyinchalik o`rtasida Sharq musiqashunos olimlari tomonidan ham qo`llangan). Pirovardida ularning tarkibida yetarli me`yerda uyg`un (ohangdosh) tovushlar nisbati (oktava, kvinta, kvarta) borligini hamda ularning sonlardagi ifodasi dastlabki to`rt raqamga muvofiq kelishini (oktava-2:1; kvinta-3:2; kvarta-4:3) aniqlangan. Demak, mukammal uyushgan parda tizilmalari dastlab ilmiy-nazariy asosda ham ijod etilmagan, balki ularda mavjud go`zal ohang uyg`unliklari ilmiy asosda kashf etilgan edi. Olimlar orasida mavjud qarashlarga ko`ra maqomlarning eng qadimiy namunalari payg`ambarlardan meros qolgan.

Xususan, XVI asr ikkinchi yarmi – XVII asr birinchi choragida yashab ijod etgan vatandoshimiz, mashhur musiqachi va olim Darvish Ali Changiyning “Tuhfatussurur” nomli risolasida xabar berishicha, avvaliga yetti payg`ambar nomlari bilan bog`liq yettita maqom bo`lgan. Bunda “Rost”maqomi – Odam alayhissalomdan, “Ushshoq” – Nuh alayhissalomdan, “Navo” – Dovud alayhissalomdan, “Hijoz” – Ayub alayhissalomdan, “Husayniy” – Yoqub alayhissalomdan va “Rahoviy” – Muhammad sallallohu alayhi vassalamdan meros qolganligi haqqidagi rivoyatlar bayon etiladi. Muallif bu axborotni yetkazishda Xo`ja Abdulqodir ibn Marog`iy, xo`ja Safiuddin ibn Abdulmo`min, Sulton Uvays Jaloir kabi juda obro`li ustozlar fikriga tayanganligini ham ma`lum qiladi. Shuni aytish kerakki maqomlar musiqasiga oid “maqom” atamasidan avval “yo`l” ma`nosini anglatuvchi “roh”, “tariqa”, “ravish” kabi atamalar qo`llanib kelganligini Darvish Ali Changiy bayon etgan ma`lumotlarni quvvatlashga xizmat qilishi mumkin.

Ollohol taolloning yer yuzidagi elchilar bo`lgan payg`ambarlarning insonlarga chinakam baxt-saodatga erishish yo`llarini ko`rsatganlar. Ulardan qolgan ma`naviy ta`limot namunalari jamoa-qavmlar orasida alohida e`zozlanib, avloddan-avlodga go`zal ruhiy meros sifatida o`tib kelgan. Inson tinglovi va idroki uchun eng ma`qul va manzur bo`lgan mukammal pardalar ham dastlab shu meros negizida (yoki uni nazariy jihatdan o`rganish asnosida) hosil etilib, so`ngra shu (parda) “yo`llar” asosida turli kuylar rivojlantirilgan (yoki kuylarning yangi namunalari ijod etilgan) bo`lsa kerak. Shunday qilib, qadimgi dunyodan meros kelayotgan mukammal parda uyushmalari keyinchalik maqom tizimlari yuzaga kelishida, shuningdek, bastakorlar-u, xalq musiqa ijodiyoti rivojida ham muhim poydevor yanglig` ahamiyat kasb etgan. Maqomlarda mavjud yana bir musiqiy qatlamni xalq og`zaki musiqa ijodiyotining ko`hna namunalari tashkil etadi. Hayratlanarli tomoni shundaki, maqomlarda xalq musiqasining hatto eng qadimiy namunalariga oid “izlari” ham saqlangan. Xususan bu izlarni bizgacha yetib kelgan Navro`zi Ajam, Navro`zi Xoro, Navro`zi Sabo nomli maqom asarlarida ko`ramiz. Shundayki, bu

asarlarning kuy negizlarida mutaxassis olimlar tomonidan “xalq kuyining eng qadimiy namunasi” (“birlamchi chiziq” –G. Shenker) tarzida tasnif etilgan quyi oqim kuy ohanglari yaqqol namoyon bo`ladi. Bu hol bejiz emas, albatta.

Ma`lumki, ko`pgina Sharq xalqlari uzoq o`tmishdan buyon Navro`z bayramini keng nishonlab, shu munosabat bilan ma`lum kuy va ashilalarni ijro etib kelganlar. O`ziga xos mavsumiy marosim musiqasi sifatida xalq an`anaviy hayotidan muqim o`rin olgan bu toifa kuylar keyinchalik maqom tizimlariga kiritilib, o`zining yuksak rivojlangan ko`rinishlarga ega bo`lganligi haqiqatga yaqin bo`lsa kerak. Maqom manbalari qatorida “goh” (ya`ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizilmalari ham e`tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma`lum ohanglarda o`qish an`anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o`rinda Avestodagi “Gatheha” so`zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o`tganligi va yana qator holatlar inobatga olinadi. Bizga ma`lum “goh” kuylarining tahlili esa bu namunalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko`rsatadi. Xususan, Farg`ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg`u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizilmalari borligi ayon bo`ladi. Etnomusiqa shunos olimlarning qo`lga kiritgan so`nggi yutuqlaridan ma`lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

Albatta, maqomlarda qadimiylikka mansub qanchadan-qancha musiqiy yodgorliklarning o`rni topilmasin, biroq ularni asl holiday qayta “jonlanadi”, sadolanadi deb bo`lmaydi. Zero maqomlarda “saqlangan” musiqiy yodgorliklar, garchand ularning muhim izlari saqlanib qolgan bo`lsa-da, o`zlarining yuksak rivojlangan holatlarida namoyon bo`ladi.

Demak, maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma`nodagi maqomlar tarixi bo`lmay, balki ko`proq ularning kelib chiqish manbalari bo`lgan ko`hna davr musiqa kuy qatlamlariga dahldordir. Xuddi ana shu turli musiqa namunalari (demakki, turli uslubli kuy shakllari) asosida usluban badiiy yaxlit maqom tizimlarining shakllanish davrlaridan e`tiboran bevosita mumtoz maqomlar tarixi ham boshlanadi. Dastlabki maqom tizimlari qachon va qanday shaklda bo`lganligi xususida aniq ma`lumotlarga ega emasmiz. Bu borada Sosoniylar saroyida (shoh Xosrov Parviz davrida – 590-628yil) xizmat qilgan mashhur musiqachi – Borbad (vaf.627y.) ijodiy merosi, xususan unga nisbat beriladigan “7 Husravoniy” tizimi diqqatni o`ziga jalb etadi. Musiqashunos olimlar “7 Husravoniy” tizimi keyonchalik maqomot tizimlari yuzaga kelishida asos bo`lganligi yoki har holda bu tizimning maqomlar shakllanishiga ma`lum ta`siri haqida taxminlarga boradilar. Ammo bu masalada hali

bir to`xtamga erishilmaganligini ham qayd etish kerak. Mutaxasislar salobatli maqom tizimlarining yuzaga kelishi kasbiy musiqa qatlami (ijodkorlik, ijrochilik) taraqqiyotining ma`lum tarixiy bosqichi, shuningdek, rivojlangan musiqa ilmi, falsafa va matematika fanlarining mavjudligi, qolaversa buning uchun zarur shahar madaniy muhiti kabi omillar bilan shartlanganligini alohida ta`kidlaydilar. Xususan, atoqli musiqashunos olim, san`atshunoslik fanlari doktori Ishoq Rajabovning bu boradagi malakali ko`rsatmalari e`tiborlidir:

“Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqaviy-estetik qarashlari barkamol bo`lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan... Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu fanining rivojlanishi bilan ham chambarchas bog`liqdir. Sharq musiqa olimlari musiqani tibbiyat, falsafa va matematika fanlari bilan bog`liq ekanligini uqtirib o`tganlar”. Professor Ravshan Yunusovning ta`kidlashicha: “Sharq maqomoti ko`hna, ancha murakkab falsafiy-estetik, musiqiy-nazariy hamda amaliy asoslarga egadir”. Shuni aytish kerakki, sharq muslimmon olamida maqom tizimlari yuzaga kelishi uchun zarur omillar IX-Xasrlarga kelib jamul-jam bo`lgan edi. Zero, aynan shu davrlarda aniq fanlar rivojlandi, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiyning (871-950) musiqashunoslikdagi buyuk xizmatlari o`laroq Sharq musiqa ilmiga asos solindi, kasbiy musiqa amaliyoti yangi bosqichga yuksaldi, shuningdek diniy-falsafiy ta`limot va qarashlar yoyila boshladi. Ana shu bevosa va bilvosita omillar ta`sirio`lar o`rta asr Sharqining yirik (markaziy) shaharlarida o`n ikki maqom tizimi yuzaga kelgan edi. Mazkur tizim tasnifoti dastlab Safiuddin Urmaviy (tax. 1230-1294) va Qutbiddin Sherziylarning (1236|37-1310) musiqa ilmiga doir asarlarida ishlab chiqilgan bo`lib, keyingi asrlarda Abdulqodir Marog`iy (XIV), Abdurahmon Jomiy, Zaynulobidin Husayniy (XV), Najmiddin Kavkabiy (XVI), Darvishali Changiy (XVI-XVII) kabi ustoz amaliyotchi va nazoratchi olimlar tomonidan ijodiy davom ettirilgan edi. O`n ikki maqom tizimi bir necha tarkibiy qisimlardan tashkil topgan bo`lib, ularning asosiylari 12 maqom, 6 ovoza va 24 sho`balardan iborat bo`lgan. Bunda qadimdan kelayotgan yetti bosqichli mukammal parda tizilmalari 12 maqom guruhiga, ko`hna xalq kuy, aytimlari (Navro`zi Ajam, Dugoh, Segoh va b.) esa sho`balar toifasiga tasnif etilgan edi. Ushbu tizim bilan bog`liq qator masalalar, shu jumladan tarkibiy qismlarning tizim doirasidagi alohida vazifasi hamda musiqa amaliyotida bevosa o`zaro bog`lanish jihatlari hozirgacha jumboq bo`lib kelmoqda.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Rajabov Ishoq. Maqomlar. Toshkent., (qo`lyozma) San`atshunoslik institute kutubxonasi, Inv. N843, b. 61
2. Yunusov R. Yu. O`zbek xalq musiqa ijodi (ilmiy-uslubiy tavsiyalar) II qism, T., 2000, b. 24

3. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Performance of national and foreign classical works on the stage of the Theater of Young Audiences.
4. Hamitova Sunbula Bahodir qizi. (2024). Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida milliy va xorijiy klassik asarlarning sahnalashtirilishi.
5. Хамитова С. Б. Художественные и идеологические проблемы в репертуаре театра //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 88-91.
- 6.Сунбула Б. Хамитова РОЛЬ ТЕАТРА В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДУХОВНОСТИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ // Inter education & global study. 2024. №3 (2). URL:
7. Rajabov, T. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 139-145.
- 8.Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.
- 9.Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
- 10.Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне" тутовое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
- 11.Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
- 12,Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. Наука, техника и образование, (2-2 (77)), 84-86.
- 13.Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. Вестник науки и образования, (21-2 (99)), 55-58.
- 14.Ражабов, Т. И. (2020). Тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. Наука, образование и культура, (3 (47)), 61-63.
- 15.Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
- 16.Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). 5-7-SINF O 'QUVCHILARINI XALQ OG 'ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI

TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI, 2(10), 392-400.

17.Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. Miasto Przyszłości, 29, 363-367.

18.Ражабов, Т. (2023). О ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.

19.Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). MUSIQA MADANIYATI TA’LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O ‘RNI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMY JURNALI, 2(10), 423-431.

20.Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X), 1.

21.Раджабов, Т. И., & Орипов, Н. О. (2022). Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методологическая проблема. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, 2(2), 409-412.

22.Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.

23.Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. Miasto Przyszłości, 29, 363-367.

24.Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). 5-7-SINF O ‘QUVCHILARINI XALQ OG ‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMY JURNALI, 2(10), 392-400.

25.Rajabov, T. I., & qizi Safoeva, S. S. (2022). MUSIQA MADANIYATI TA’LIMIDA MUSIQIY SAVODXONLIK FAOLIYATINING TUTGAN O ‘RNI. TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMY JURNALI, 2(10), 423-431.

25.Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X), 1.

26.Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMY JURNALI, 1(6), 139-145.

27.Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.

- 28.Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
- 30.Ражабов, Т. (2023). O ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.
- 31.Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. *Miasto Przyszłości*, 33, 167-176.
- 32.Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. *Вестник науки и образования*, (5-2 (83)), 34-37.
- 33.Ражабов, Т. И. (2021). Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе. *Наука, техника и образование*, (2-2 (77)), 84-86.
- 35.Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 55-58.
- 36.Ражабов, Т. И. (2020). Тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. *Наука, образование и культура*, (3 (47)), 61-63.
- 37.Ражабов, Тухтасин Ибодович. “Ибодов Уктаим Расулович ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В ОБУЧЕНИИ ПЕСНЯМ БУХАРСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА НА УРОКАХ МУЗЫКИ.” *Вестник науки и образования* 21-2 (2020): 99.
- 37.Ражабов, Тухтасин Ибодович. “Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни.” *Miasto Przyszłości* 33 (2023): 167-176.
- 38.Ражабов, Тухтасин. “O ‘zbek bolalar musiqiy o ‘yin folklorining mavzuviy tasnifi.” *Общество и инновации* 4.5/S (2023): 340-345.

- 39.Ражабов, Дилшод Зарипович, and Тухтасин Ибодович Ражабов. “Формирование и развитие узбекской народной лирики.” Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. 2018.
- 40.Ражабов, Тухтасин Ибодович. “Усовершенствование научно-методических возможностей обучения бухарским детским фольклорным песням в средней общеобразовательной школе.” Наука, техника и образование 2-2 (77) (2021): 84-86.

## **KREATIVLIK VA KREATIV TAFAKKUR TUSHUNCHALARI, ULARNING KASBIY FAOLIYATDAGI AHAMIYATI**

*Shakirova Umida Abduraxim qizi  
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annottsiya:** Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada shaxsning ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati, kreativlik, kreativ qobiliyat, tafakkur, muloqot, xodimning o‘z-o‘zini shakllashtirishi bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, ichki ishlar xodimi, kreativlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, faoliyat, qobiliyat, kreativ tafakkur.

Kreativ fikrlash, biron bir ishga kreativ yondashish bugungi kunda jamiyat hayotining va ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida eng ko‘p e‘tibor qaratilayotgan va o‘rganilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik, ijodkorlik muammolari kecha yoki bugun paydo bolgan yangi tadqiqot mavzusi emas. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Iste‘dodlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib, o‘z-o‘zidan adabiyot va san‘at durdonalarini yaratdi: ilmiy kashfiyotlar qildi, ixtiro qildi va shu orqali rivojlanayotgan insoniyat madaniyatining ehtiyojlarini qondirdi.

Hozirgi kunga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida hayot rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa, odamdan muayyan qolipa solingan odatiy harakatlarni emas, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo‘naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Ijtimoiy hayotning jadallashuvi davrida ijodiy fikrlaydigan shaxsga talab ortib boradi, chunki u o‘ziga yuklangan vazifalarni tezroq va tejamkorlik bilan hal qila oladi, qiyinchiliklarni samaraliroq yengadi, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yadi, o‘zini tanlash va harakat qilish erkinligini ta‘minlaydi, pirovard natijada, jamiyat tomonidan qo‘yilgan muammolarni hal qilishda o‘z itidorini eng samarali tarzda tashkil qiladi.

Ichki ishlar xodimlari kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi bizning ishimizning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Chunki, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ichki ishlar xodimlari faoliyatida, ishni to‘g‘ri va samarali tashkil etishda kreativlik juda muhim hisoblanadi. Xodimning kreativ fikrlashi muammoni tez va aniq yechishga, unga yangicha yondashishga xizmat qiladi.

Mazkur masalaga yondashishda chet el tajribasiga ko‘proq tayanish zarur, chunki ushbu masala chet ellik olimlar tomonidan keng va batafsil o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, amerikalik psixologlar Hennesey va Amabilelarning

ta'kidlashicha, Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan<sup>32</sup>.

Tadqiqot mavzusi doirasida turli xil kasblar mutaxassislari o'rtasida ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishi tadqiq qilish barobarida, Ichki ishlar xodimlarida ijodkorlikni shakllanishini tahlil qilish nazarda tutiladi. Gipoteza ijodiy qibiliyatlar ko'proq "inson-inson" kasbidagi odamlarda namoyon bo'ladi degan taxmindir, chunki bu turdag'i mutaxassislarning kasbiy faoliyatining asosini ko'p qirrali va individuallikni talab qiladigan odamlar bilan o'zaro munosabat jarayoni tashkil etadi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bir qator xorijlik psixologlar katta hissa qo'shdilar. Teplov, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananyev, N.S. Leites, V.A. Krutetskiy, A.G. Kovalev, K.K. Platonov, A.M. Matyushkin, V.D. Shadrikov, Yu.D. Babaeva, V.N. Drujinin va boshqalar. V.N. Drujinin ijodiy qobiliyatlarni insonning turli xil ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydigan fazilatlarining individual xususiyatlari sifatida tushunadi. Ijodkorlik ko'plab fazilatlarning uyg'unlashuvindir<sup>33</sup>.

Ko'pgina psixologlar ijodiy faoliyat qobiliyatini, birinchi navbatda, fikrlash xususiyatlari bilan bog'laydilar. Xususan, inson aql-zakovati muammolari ustida ishlagan mashhur amerikalik psixolog Guilford, ijodiy shaxslarga divergent fikrlash deb ataladigan xususiyatlar xos ekanligini aniqladi.

Bizning ishimiz uchun muhim bo'lgan yana bir atama bu muloqot qobiliyatlari hisoblanib, muloqot va kommunikativ jarayon vositalarini o'rganish Ananyev B.G., Andreeva G.M., Bodalev A.A., Leontyev A.A., Lomov B.F., Nemov R.S. kabi mualliflar tomonidan amalga oshirilgan. Biz muloqot ko'nikmalarini odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz, bu jarayonda shaxslararo, xususan xodim va fuqaro aloqalari paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar<sup>34</sup>. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

<sup>32</sup> Hennessey, B. and T. Amabile (2010), «Creativity», Annual Review of Psychology, Vol. 61, pp. 569-598

<sup>33</sup> Jeleznyak, V. A. Turli xil kasblar mutaxassislarining ijodiy qibiliyatları: qiyosiy tahlil / V. A. Jeleznyak. — Matn: darhol // Yosh olim. - 2014. - № 11.1 (70.1). — B. 48-49.

<sup>34</sup> OECD (2010), The OECD Innovation Strategy: Getting a Head Start on Tomorrow, OECD.

Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan bordaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” - deb ta’rif beradi<sup>35</sup>.

Kreativlik tushunchasining lug‘aviy ma’nosi ingliz tilida “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor ma’nolarini anglatadi. Jamiyat hayotining qaysi sohasida qo’llanilishiga qarab turli soha vakillari tomonidan turlicha ta’riflar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, pedagogik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik pedagogning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

Psixologik nuqtai nazardan yondashganda, kreativlik inson shaxsining ijodkorlikka bo‘lgan qobiliyati, ijodkorlik iste’dod darajasi, individning an’anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo‘lgan, printsipial yangi g‘oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o‘zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir. Umuman olganda, bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativ shaxs esa, o‘zining fikrlashi, dunyoqarashi, doimo yangiliklarga intilishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, muammoga boshqa shaxslarga qaraganda noodatiy tarzda yechim topa olishi va original qarashlarni bildira olishi, qiziqarli suhbatdosh bo‘lish va boshqa xususiyatlarni o‘zida aks ettirmog‘i lozim.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. A.Maslou ham kreativlikni – barchaga xos tug‘ma ijodiy yo‘nalish, atrof muhitning ta’sirida ko‘pchilikda yo‘qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan. Amerikalik psixolog olim Djo Pol Gilford o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divirgent turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur – (lotincha convergere – “bir yo‘ldan”) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir.

<sup>35</sup> Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.- мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С. 9.

Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi<sup>36</sup>.

Divergent tafakkur – (lotincha divergere – “bo‘linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo‘lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o‘zida turli yo‘nalishlarga izlanish, ya’ni bir muammoga bir nechta to‘g‘ri javoblar borligini va original ijodiy g‘oyalarning tug‘ilishiga xizmat qiladi<sup>37</sup>. Divergent tafakkurning negizini esa kreativlik tashkil etadi.

Kreativlik tafakkurning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lib, shaxs tafakkuri qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, kreativ fikrlashi ham shunchalik rivojlangan bo‘ladi. Biroq kreativlik faqatgina tafakkurning yuqori darajada rivojlanganligi bilan hosil bo‘lib qolavermaydi, ya’ni intellektual salohiyati yuqori shaxs har doim ham kreativ fikrlay olmasligi mumkin.

<sup>36</sup> Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.- мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С. 9.

<sup>37</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.

## **OPTIMAL TIMING FOR TEACHING CHILDREN A FOREIGN LANGUAGE**

*Qurtova Mayluda Berdimurodovna*  
*Uzbekistan State World Languages University*

**Annotation:** This article explores the optimal age for introducing a foreign language to children, considering cognitive development, educational benefits, and societal implications.

**Key words:** language acquisition, cognitive development, bilingualism, educational advantages, critical period hypothesis.

In the dynamic landscape of globalization, the ability to communicate across linguistic borders is increasingly valuable. The question arises: when is the most opportune time to teach a child a foreign language? This article delves into the complexities of language acquisition, considering cognitive milestones, educational advantages, and the critical period hypothesis.

### **Understanding Cognitive Development:**

